

OBYEKTIV OLAM VA TIL KODLARI MASALASI

Sh.M.Iskandarova

filologiya fanlari doktori, Fargʻona davlat universiteti professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15693667>

Annotatsiya. Maqolada yuqori sath birliklarini mazmuniy maydonlarga boʻlib oʻrganish, belgi bilan soʻzlovchi shaxs oʻrtasidagi munosabat va uning tadqiqi haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: obyektiv borliq, pragmalingvistika, neolingvistika, antropolingvistika, til kodlari, olamning lingvistik manzarasi, antropotsentrik paradigma.

ВОПРОСЫ ОБЪЕКТИВНОГО МИРА И ЯЗЫКОВЫХ КОДОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы изучения единиц высшего уровня путем деления их в семантические поля, отношения знака и говорящего лица и его исследования.

Ключевые слова: объективная сущность прагмалингвистика, неолингвистика, антрополигвистика, языковые коды, лингвистическая картина мира, антропоцентрическая парадигма.

THE OBJECTIVE WORLD AND THE QUESTION OF LANGUAGE CODES

Abstract. The article presents the issues of studying units of high layers dividing them into semantic fields, the relationship between a sign and a speaker.

Key words: objective world, pragmalinguistics, anthropolinguistics, language codes, linguistic picture of the world, anthropocentric paradigm.

Soʻzni tilning asosiy birligi ekanligini eʼtirof etuvchi tilshunoslar shu soʻzning semik tarkibi, polisemiya muammosi asosida leksik-semantik sistemani quradilar, natijada leksik-semantik variantlar sistemasi hosil qilinadi. Soʻzning mustaqilligini inkor qiluvchi tilshunoslar sistemaning asosiy “qurilish bloki” sifatida semantik maydonlarni eʼtirof qiladilar [1,5].

Koʻrinadiki, bu yoʻnalish sistemaviy-struktur tilshunoslikning mahsuli sanaladi. Birinchi yoʻnalish struktur semantikaning rivojlanishi, ikkinchi yoʻnalish esa til strukturasini soʻzlovchi shaxs bilan bogʻlab oʻrganish, lingvistik tadqiqot paradigmasiga “soʻzlovchi shaxs”ni kiritish natijasida maydonga keldi.

Nutqiy jarayonda soʻzlovchi shaxsga eʼtiborning tortilishi tilshunoslik tarixida katta voqea boʻldi. Chunki struktur tilshunoslikning belgining belgi bilan munosabatini oʻrganishga asosiy eʼtiborni qaratganligi natijasida belgining obyekt bilan, belgining subyekt bilan munosabati masalasi tilni sof “shakl” sifatida talqin qiluvchi strukturalistlar nazaridan ancha chetda qolgan edi. Tilshunoslikdagi xuddi shu cheklangan tomonni toʻldirish harakati tufayli pragmalingvistika, neolingvistika, antropolingvistika nomi bilan yuritilayotgan tilshunoslikning yangi yoʻnalishlari paydo boʻldi.

Oʻtgan asrning soʻnggi yillarida tilshunoslikda tilga belgilar sistemasi sifatida qarash gʻoyasining kuchayishi yaqqol sezila boshladi. Maʼlumki, bunday talqinning negizida belgining obyektiv borliq bilan munosabati, belgining belgi bilan munosabati, belgining undan foydalanuvchilar bilan munosabati yotsa-da, bu davrda belgi bilan soʻzlovchi shaxs oʻrtasidagi aloqadorlik yetarlicha oʻrganilmagan edi.

Hozirgi kunda qator tilshunoslarning diqqat-eʼtibori belgi bilan soʻzlovchi shaxs oʻrtasidagi munosabatga qaratilgan pragmatik lingvistika bilan chambarchas bogʻlangan antropolingvistika sohasini oʻrganishga qaratildi [2;3;4;5;6;7]. Antropolingvistika oʻz ichida kognitiv semantika, psixolingvistika, lingvokulturologiya singari qator sohalarni qamraydi.

Nutqiy jarayonda soʻzlovchi shaxsga eʼtiborning tortilishi tilshunoslik tarixida katta voqea boʻldi. Chunki struktur tilshunoslikning belgining belgi bilan munosabatini oʻrganishga asosiy eʼtiborni qaratganligi natijasida belgining obyekt bilan, belgining subyekt bilan munosabati masalasi tilni sof “shakl” sifatida talqin qiluvchi strukturalistlar nazaridan ancha chetda qolgan edi. Tilshunoslikdagi xuddi shu cheklangan tomonni toʻldirish harakati tufayli pragmatik, neolingvistik, antropolingvistik nomi bilan yuritilayotgan tilshunoslikning yangi yoʻnalishlari paydo boʻldi. Jahon tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, psixolingvistik, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistik, diskursiv tahlil kabi yoʻnalishlarining yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq oʻrganish hamda lingvistik faoliyatni kengroq yoritish harakatlari bilan bogʻliqdir [7, 3].

Jahon tilshunosligida yaqin yillarga qadar insonning oʻzini qurshab turgan olam uzvlarini bilishi, uning muhim belgilariga tayangan holda nom berishiga asoslangan til va borliq oʻrtasidagi munosabat masalasi ustuvor boʻlib keldi. Soʻnggi yillarda belgi bilan undan foydalanuvchilar oʻrtasidagi munosabatni oʻrganish doirasida ham yangidan-yangi tahlil usullari maydonga keldi. Muayyan milliy-madaniy omillar, ijtimoiy holat, ayni paytda, inson ruhiyati bilan aloqador antropotsentrik tilshunoslik ana shunday yoʻnalishlardan sanaladi.

Antropotsentrizm doirasida tilni shaxs tasavvuri, idroki, xotirasi bilan uzviy bogʻliq holda tadqiq etuvchi assotsiativ tilshunoslik katta ahamiyatga ega. Oʻzbek tilshunosligida mazkur muammo boʻyicha endigina namoyon boʻla boshladi [8].

Bizga maʼlumki, hech bir tilni “til egasi”dan ajratgan holda toʻgʻri va toʻliq oʻrganish mumkin emas. Zero, har bir nutq aktida soʻzlovchi shaxsning izi sezilib turadi. Nutqiy jarayonda kommunikantlarning til haqidagi bilimlari ularning bir-birlarini toʻgʻri va aniq tushunishlari uchun yordam beradi. Nemis olimi V.Gumboldtning “tushunishlik va tushunmaslik” antinomiyasi ham ayni shu jarayonni ifodalash uchun qoʻllanilgan edi.

Soʻzlashuvchilarning til bilimi deganda, nafaqat ularning til kodlaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasi, balki til kodlarini borliq bilan bogʻlash koʻnikmasi ham tushuniladi.

Ikkinchi koʻnikma hozirgi kunda “olamning lingvistik manzarasi” (OLM) deb nomlanayotgan tushuncha bilan uzviy bogʻliqdir. OLM gnoseologiyaning tarkibiy bir qismi sanalib, inson miyasida olam uzvlarining aks etishini namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, olam uzvlari inson ongida oʻzaro shartlangan va bogʻliq ravishda aks etadi va bu aks etgan uzvlar muayyan bir tilning kodlari orqali ifodalanadi.

Olam uzvlari oʻzaro bogʻliq ravishda inson ongida guruh-guruh sifatida aks etar ekan, uning kodlari ham ana shunday xususiyat kasb etadi. Kodlar oʻrtasidagi ana shunday assotsiativ munosabat lingvistik birliklarni maʼlum mazmunli maydonlarga birlashtirishga asos boʻladi.

Masalan, inson mazmunli maydoni uning harakati, intellektual qobiliyati, turmush tarzi, madaniyati, xulqi singari qator belgilarini nomlovchi lingvistik birliklarni oʻz ichiga oladi. Bir mazmunli maydon tarkibiga kirgan barcha uzvlarda “inson” semasi takrorlanadi. Mazkur takrorlanuvchi sema bu aʼzolarining barchasi uchun birlashtiruvchi sema – arxisema vazifasini bajaradi. Bir mazmunli maydon tarkibidan parchalanuvchi kichik maydonlar bilan katta maydon oʻrtasida shajaraviy bogʻliqlik mavjud boʻladi. Ana shu bogʻlanish ularni bir mazmunli maydon ostida birlashtirib turadi.

Qisqasi, bugungi kunda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi uchun tilning amaliy tomoni, yaʼni belgi bilan soʻzlovchi shaxs oʻrtasidagi munosabatga yoʻnaltirilgan pragmatikani chuqur oʻrganish oʻzbek tilshunosligining keyingi istiqboli uchun zamin tayyorlaydi.

REFERENCES

1. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. М.: Наука, 1976.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 1987.
3. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, 2006.
5. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. Тошкент: Akademnashr, 2012.
6. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: Akademnashr, 2015.
7. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. Тошкент: Фан, 2013.
8. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: MERIYUS, 2017.